

## FORS TILIDA SHAXS XARAKTERINI ANGLATUVCHI SIFATLAR TARKIBIDAGI SINONIMIK QATORLAR

**Hasanova Nargiza Abubakir qizi**

*Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi 3-umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili  
adabiyot fan o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqola fors tilida shaxs xarakterini anglatuvchi sifatlar tarkibidagi sinonimik qatorlarni o'rganishga qaratilgan. Aytish joizki, sinonim so'zlar qatori fors tili tarkibida ko'plab uchraydi. Buni nafaqat sifatlar doirasida, balki aynan shaxs xarakterini anglatuvchi sifatlar doirasida ham kuzatish mumkin. Tadqiqotda struktur jihatdan sodda sifatlar sinonimik qatori, yasama sifatlar sinonimik qatori, murakkab sifatlar sinonimik qatori va aralash turdagi sifatlar sinonimik qatori aniqlandi va tahlilga tortilgan badiiy adabiyot namunalaridagi jumlar orqali ushbu sifatning qo'llanish faol-nofaolligi, yangi ma'no qirralari oydinlashdi.*

**Kalit so'zlar:** *leksik sinonimiya, sinonimik qator, sodda sifatlar sinonimik qatori, yasama sifatlar sinonimik qatori, murakkab sifatlar sinonimik qatori, aralash turdagi sifatlar sinonimik qatori.*

Leksik sinonimiya leksemalarning bir xil ma'no anglatishiga ko'ra guruhlanishidir: احمق - go'l, nodon, ahmoq, بل - ahmoq, nodon, جاهل - nodon, چل - aqlsiz, nodon, ahmoq, حمقى - ahmoq, خرفت - ablah, go'l, nodon, خل - ablah, ahmoq, دبنگ - ahmoq, دند - ahmoq, دنگ - aqlsiz, ahmoq, ديوانه aqlsiz, nodon, ahmoq, رعاء - go'l, ahmoq, سفیه - nodon, ablah, ahmoq, شفق - nodon, ablah, علان - nodon, ahmoq, غبی - johil, nodon, غدننگ - ablah, ahmoq. Bunday guruhlar tilshunoslikda sinonimik qatorlar deb nomlanadi<sup>23</sup>.

Leksosinonimlik kamida ikkita leksema (leksosemema) orasida vujudga keladi va tom ma'noda leksik paradigmaga teng bo'ladi: 1) sinonimlarning leksik ma'nosi (ideografik semalari) teng bo'lgani sababli ularni tanlab ishlatish mumkin, 2) shu xususiyatiga ko'ra sinonimlar muntazam tuzum hosil etadi, 3) sinonimlik til qurilishining o'ziga xos ichki (intralingvistik) hodisa bo'lib, semantik mikrotuzum deyiladi.

Sinonimik mikrotuzum ko'pincha sinonimik qator deb nomlanadi. Sinonimik munosabatga kirishuvchi leksik birliklarning miqdori cheklanmagan bo'ladi: ikki va undan ortiq bo'laveradi<sup>24</sup>.

Shaxs xarakterini anglatuvchi sifatlar tarkibida ham sinonimik qatorlar uchraydi.

Sodda so'zlar tarkibidagi sinonimik qatorlar: اشموغ, ائيم, اكذب, يشاك, بطل, جعال, خراص, خراس, جعال, بطل, يشاك, ائيم, اشموغ – yolg'onchi. اشگرف, تاشک, جلد, جليد, چالاک, وشکول, زرنگ, چابک – epchil, chaqqon; ساکت, آرام – sokin, xotirjam, نیک, خوب – yaxshi.

اون ليلايي که من مي شناختمش خيلي خوب و مهربون بود.

<sup>23</sup> Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Talqin, 2005. – B. 131.

<sup>24</sup> Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Universitet, 2006. – B. 73.

(مرتضى مودب پور «پريچهر» 10)

*Men tanigan o'sha Laylo juda yaxshi va mehribon edi.*

تو همسر خوب و مهربون و قشنگ من هستي و هميشه مي موني.

(مرتضى مودب پور «پريچهر» 273)

*Sen mening yaxshi, mehribon, go'zal ayolimsan va hamisha shunday bo'lib qoladi.*

Izlanishlar natijasida ma'lum bo'ldiki, bugungi forsiy badiiy adabiyot namunalarida xarakter sifatleri sinonimik qatoridan *خوب* sifatli faol qo'llanadi.

Yasama so'zlar tarkibidagi sinonimik qatorlar: *badjahl* (suffikslar vositasida), *مهربان، بامحبت، اقلي، بخرد، خردمند، اqlsiz* (prefikslar vositasida), *بی خرد* (suffiks-prefiks vositasida), *مهربون* (suffiks-prefiks vositasida), *بامهر* (poluaffikslar vositasida).

تا در خانه مادری *مهربان* دارد فکر زن به سرش خواهد زد.

(نسترن حمزه «آواز ققنوس» 235)

*Toki uyida mehribon onasi bor ekan ayol fikrini miyasiga keltirishni xohlamasdi.*

این پیرزن *مهربون* که تو قالی بافی هم مثل آشپزی استاد بود تمام ریزه کاری هارو به من یاد داد.

(مرتضى مودب پور «پريچهر» 273)

*Gilamdo'zlikning ham ustasi bo'lgan bu mehribon kampir menga ishning barcha mayda-chuydalarini o'rgatdi.*

Misollardan ko'rinib turibdiki, hozirgi forsiy badiiy adabiyot namunalarida *مهربان* xarakter sifatli *مهربون* tarzida ham qo'llanadi.

Murakkab so'zlar tarkibidagi sinonimik qatorlar: *yomon*, *qo'pol so'zlovchi*, *dashnom beruvchi*, *yomon*, *qo'pol so'zlovchi*; *kek saqlovchi*, *بدبيله، بدکینه، سخت انتقام*; *چرب زبان، شیرین زبان، خوش*; *yomon amalli*; *بدکردار، بدکار، بدکنش، بدعمل، بدفعل، بدفعال، qasoskor*; *shirinso'z* – سخن، چرب گفتار، شیرین سخن

بدم میاد از مردهای *بدهن*!

(نسترن حمزه «آواز ققنوس» 376)

*Achchiq (qo'pol) so'zlovchilarni yomon ko'raman.*

Izlanishlar natijasida ma'lum bo'ldiki, shaxs xarakterini anglatuvchi murakkab leksemalar tarkibidagi sinonim so'zlarning aksariyati sifat + ot ko'rinishidagi modelda hosil qilinadi.

Sodda, yasama va murakkab so'zlar (aralash) tarkibidagi sinonimik qatorlar: *عاقل، باددست، مسرف، baxil, xasis*; *تنگ چشم، گرسنه چشم، زفت، خسیس، ممسک، اقلي، تیزهوش، خردمند* – *بيخرد، بیعقل، گول، کودن*; *بيدار دل، دل آگاه، هوشيار، isrofgar* – *اسراف کننده، متلف، باد بدست* – *جوانمرد، سخی*; *پاک، بی آلايش، پاکیزه، نمازی، طاهر، طیب، نظیف، نزه، منزه، مهذب*; *aqlsiz*; *so'zi* *ابلوک، دورو، دورنگ* – *sodda* – ساده، بی حيله; *aqlsiz, nodon* – *جهول، نادان، بی خرد*; *saxiy* – *amaliga to'g'ri kelmaydigan, munofiq, ikkiyuzlamachi، احوط، احتیاطتر، ehtiyotkorroq.*

خیالت راحت اونجا هیچ مسئله خاصی نیست. یه مهمونی ساده اس.

(مرتضى مودب پور «پريچهر» 73)

*Tinchlan, u yerda hech bir maxsus (muhim) masala yo'q (ko'rilmaydi). Bir sodda mehmon.*

دلَم برائش مي سوزه، دختر سادِه ايه!

(مرتضى مودب پور «پريچهر» 125)  
*Qalbim uning uchun kuyadi, sodda qiz!*

شهره تو سادِه اي!

(مرتضى مودب پور «پريچهر» 131)  
*Sho'hre, sen soddasan!*

اتفاقا دختر سادِه و خوبيه.

(مرتضى مودب پور «پريچهر» 134)  
*Aytgancha, u sodda va yaxshi qiz.*

Qayd etilgan gaplar asosida anglash mumkinki, سادِه xarakter sifati ba'zan ijobiy, ba'zida esa salbiy ma'no ifodalaydi. Bu sifat bir necha ijobiy ma'noli xarakter sifatlari bilan qo'llanganda ijobiy ma'no aks ettiradi. To'rtinchi ustunda ifodalangan gap fikrimizga yorqin dalil bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda, sinonimlar nutqda muhim uslubiy vosita sanaladi: ular nutqning ravon va ta'sirli bo'lishini, fikrning aniq va obrazli chiqishini ta'minlaydi. Shaxs xarakterini anglatuvchi sifatlar tarkibidagi sinonimik qatorlarda quyidagi holatlar kuzatiladi:

1) Ular sodda sifatlar sinonimik qatori, yasama sifatlar sinonimik qatori, murakkab sifatlar sinonimik qatori va aralash turdagi sifatlar sinonimik qatorini hosil qiladi.

2) Yasama sifatlar sinonimik qatori hosil bo'lishida prefiks, suffiks hamda poluaffikslar muhim rol o'ynaydi.

3) سادِه xarakter sifati misolida anglash mumkinki, fors tilida so'z yasalishining asos + prefiks + prefiks modeli ham uchraydi. Bunda birinchi prefiks asosdan anglashilgan tushunchaga egalik ma'nosini ifodalovchi xarakter sifatini hosil qilgan. Ikkinchi prefiks esa birinchi prefiksdan anglashilgan belgini rad etadi. Demak, asosdan anglashilgan tushunchaga ega emaslik ma'nosi ifodalanadi.

4) Struktur jihatdan sodda, yasama va murakkab sifatlar bitta sinonimik qatorda kelishi kuzatiladi.

5) Sinonimik qator bir so'z turkumi doirasida bo'ladi. Ya'ni sinonimik qatorda nechta so'z kelishidan qat'iy nazar ular faqat bir so'z turkumiga tegishli hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1) Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – 131 b.
- 2) Rahmatullayev SH. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 73 b.

(3) دکتر محمد معین. فرهنگ فارسی. – تهران: ۱۳۸۱. – 2148 ص.

(4) فرهنگ فارسی بروسی. – 502 ص.

(5) مرتضى مودب پور. پريچهر. – 134 ص.

(6) نسترن حمزه. آواز ققنوس. – 376 ص.